

"Iztirob" romani uchun yozilgan maqolalarning qiyosiy tahlili.

Filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi

3- bosqich talabasi

Anvarova Shahloxon

ANNOTATSIYA: *Maqolada keltiriliadigan asosiy qiyosiy jihatlardan biri uning ruhiyati va voqealar rivojining izchilligini ko'rsatadi. Obrazlardagi o'ziga hosliklar, voqealarning boshqa asarla bilan mushtarakliklar hamda uning g'oyaviy jihatlari to'g'risida.*

Kalit so'zlar: *iztirob, nafrat, obrazlar ruhiyati, maqolalar, asar xulosasi.*

"Iztirob" romanida obrazlarning harakteri alohida ahamiyat kasb etadi. Buni Gunteginning "Choliqushi" asarida berilgan obrazlar orqali tahlil qilish ham mumkin. "Ko'rinishidan kichik bu kitobni nomidan kelib chiqib "Choliqushi" singari yana bir sevgi qissasi deb o'ylagandim, lekin adashibman.. ". Bu fikirlar Samandar Nazirjonovning " Rashod Nuri Guntekinning "Iztirob" asari haqida" nomli maqolasi. Ushbu maqola 2021-yilda "Mutolaa sehri" nomli jurnalda bosmadan chiqqan. Demak Zahroni Feride bilan yoki Ferideni Zahro bilan qiyoslay ularni o'xshash deb bilish notog'ri fikr. Misol uchun Feride va Zahro bir- biriga ummuman teskari shaxs egalari. Asarlardagi umumiy va xususiy jihatlar ularning rang- barangligini oshiradi, pisixologik bo'yoqdorligiga yordam beradi. Maqolada keltirilgan yana bir fikrga diqqatimizni qaratsak"Iztirob asari hamma narsa ham aslida ko'ringanichalik sodda emasligini, bir inson matonati va farzandlariga bo'lgan ulkan mehrini o'zida aks ettira olgan ta'sirli asardir".Biroq asarning bu tomonlar uning boshki o'rinlarida unchalik ham ko'zga tashlanmaydi, sababi o'quvchini boshqa bir yo'ldan chalg'itib o'tib boshqa tomonda berkingan sirlarni ko'rsatishdir.Asarda ko'plab muammolar sanab o'tilgan. Misol, vijdon buyurgan ish qonunga to'g'ri kelmasligi. Qonun ruxsat etgan ishga esa vijdon yo'l qo'ymasligi. O'zidan yuqori mansabdagilarga laganbardorlik qilish, tizimning yolg'onchi,

adolatsizligi. Har qanday halol, vijdonli odamning ham tizim sabab manqurt "zombi" larga aylanishi. Asar ota mehri haqidagi tasirli asar deyilishi ham mumkin, sababi bu asarda o'z dilbandlarini jonidan ortiq ko'ruvchi ota va o'zining baxtini, kelajagini oilasi uchun qurbon qilgan shxs tasvirlanadi. Kitob kichik bo'lsada o'zida ulkan ma'no, dard, iztirobni aks ettirgan.

Endi asarni boshqa bir tezis orqali tahlil qilsak. Rustamjon Ortiqovning "Iztirob" romani nomli tezisida bu asarning obrazlar ko'lami qalamga olingan. Haqiqatda asarda yozuvchining o'z uslubini payqash qiyin emas. U haqiqatdan kitobxonni o'ziga torta oladi, juda murakkab falsafiy jummalarni tuzmasdan, qahramonlarining ruhiy olamini chuqur tahlil qilmasdan faqatgina bayon etish orqali kitobxoniga o'z ta'sirini o'tkaza oladi. Iztirob asari qahramonlari Guntekinning boshqa asar obrazlari kabi, oddiy, samimiy, xatolardan holi bo'lmagan insonlar namunasidir. Asarda bir oilaning qanday qilib iztirob iskanjasida qolib, parokanda bo'lganligi hikoya qilinadi. Bu asar qaynvalidasi va ayolining makrlariga uchrab, inson jirkinadigan darajada tubanlikka tushib qolgan otaning - Murshidbeyning iztirobi, yillar davomida sohta aldovlarga uchgan, otasining sirtiga emas tashqarisiga qarab baho berib, undan cheksiz nafratlangan, so'nggida otasining, so'nggi nafasiga yetib kela olmagan qizning-Zahroning iztirobini bayon qiladi. Bu iztirob uni yillar davomida o'zidan va atrofida gilaridan ayniqsa o'z otasidan nafratlanishiga olib keladi.

Gulbahor Qayumovanning maqolasining bosh qismi qilib "Tog'lardan qaytayotgan aks sadoda har bir tovushning qanchalik ulushi bo'lsa, Buyuk millat saodatida mening shunday xissam bo'ladi..."- degan gaplar olingan. Bu asar voqealariga va yoki uning falsafiy yondashuvi uchunmi yo bo'lmasa bu asarning yozuvchisiga nisbat berilganmi bu haqida aniq to'xtab o'tilmagan, faqatgina asarning epigrifi sifati qaraladi va mulohaza qilinadi.

Yana bir ilmiy maqolada Zahro obraziga shunday ta'rif beriladi: "U hech rahm-shafqat tuyg'usini his qilmaydi". Bu fikrlar aynan Guntegin asarda tasvirlagan Zahroning fe'l-atvori, u bu hislati bilan ko'plab odamlarning unga nisbatan g'ayirliklariga uni yomon ko'rib qolishlariga sabab deb ham aytiladi. Ammo, Zahro

tabiati, uning shaxsida o'sha davrda yashovchi boshqa ayollarda topilmaydigan qat'iyat, matonat, jasurlik, adolatpeshalik, talabchanlik fazilatlari mujassamlashgan edi. Bu uning badiiy adabiyotda yana bir kuchli ayol obrazi maqomini olganining yaqqol belgisidir. Asar yakuni uchun ham unga aynan mos keluvchi gaplar tanlangan: "Bu asarni o'qib shunga amin bo'ldimki, har narsa ham ko'ringanidek emas... Shakar ham tuz ham bir xil, faqat ularni tatib ko'rib farqlash mumkin..."

Asar xulosasiga keladigan bo'lsak u bolaligidan qanday ayirlganini bilmay qolgan, o'zining eng yaqin insonlaridan erta judo bo'lgan, bu voqealar orqasida eng achinarlisi o'z otasini sababchi deb bilgan va undan bor kuchi bilan nafratlangan, jabrdida Zahro obrazi va unga o'xshash hayot sirlari qarshisida ojiz qolgan qalbi o'ksiklar tasvirlangan. Ularning keyingi hayotlari bu og'riqlar ortidan ular kelajagi uchun qanday muammolar paydo bo'lishini, ana shu dard va sitamlar ularni aslo tark etmay, ruhiy qiynoq ostida ushlab kelishini badiiy psixologizm orqali ko'rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Samandar Nazirjonov. "Rashod Nuri Guntekinning "Iztirob" asari haqida" [@mutolaa_sehri][23.03.2021.]
2. Rustamjon Ortiqov. ""Iztirob" romanida obrazlar ko'lami.[@mutolaa_sehri] [05.06.2020.]
3. Acımak romanı-Reşat Nüri Güntekin“. 4-avgust 2022-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: [21.12 2024yil.]
- 4.,Güntekin, Reşat Nuri“Qaraldi:[21.12. 2024 yil].
5. Rashod Nuri Guntekinning “Iztirob” asari haqida. Muallif: Qayumova Gulbahor March 21, 2020
6. Guntegin asarlar tahlili.